

INGLIZ TILINI O'QITISHDA TASK-BASED LEARNING (VAZIFAGA ASOSLANGAN TA'LIM) MODELINI

Teshaboyeva Zumradxon,

Renessans ta'lim universiteti

Xorijiy tili va adabiyot kafedrasi dotsenti v.b., PhD

Xudoyberdiyeva Gulasal Shuxratovna,

Renessans ta'lim universiteti

Xorijiy tili va adabiyot kafedrasi dotsenti, PhD

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18721076>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilini o'qitishda task-based learning (vazifaga asoslangan ta'lim) modelining nazariy asoslari, metodik tamoyillari va amaliy qo'llash mexanizmlari tahlil qilinadi. Modelning shakllanishi kommunikativ yondashuv bilan bog'liqligi asoslanadi hamda uning o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rni ilmiy dalillar asosida yoritiladi. Shuningdek, dars jarayonida task-based learning modelini bosqichma-bosqich tashkil etish, vazifalar tipologiyasi va metodik samaradorlik masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: task-based learning, kommunikativ kompetensiya, vazifa, ingliz tilini o'qitish, metodika, interaktiv ta'lim.

Annotation. This article analyzes the theoretical foundations, methodological principles and practical application mechanisms of the task-based learning model in English language teaching. The formation of the model is based on a communicative approach and its role in the development of communicative competence in students is highlighted on the basis of scientific evidence. Also, the issues of step-by-step organization of the task-based learning model in the lesson process, typology of tasks and methodological effectiveness are considered.

Keywords: task-based learning, communicative competence, task, English language teaching, methodology, interactive education.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы, методические принципы и механизмы практического применения модели task-based learning (обучение на основе задач) в преподавании английского языка. Обосновывается связь формирования данной модели с коммуникативным подходом, а также на основе научных данных раскрывается её роль в развитии коммуникативной компетенции учащихся. Кроме того, рассматриваются поэтапная организация модели task-based learning в учебном процессе, типология заданий и вопросы методической эффективности.

Ключевые слова: task-based learning, коммуникативная компетенция, задание, обучение английскому языку, методика, интерактивное обучение.

Kirish. Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda (darsda) amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa, ko'p tillilik (poliglossiya) ulkan ahamiyat kasb etmoqda. [4. 271]

Zamonaviy til o'qitish metodikasida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ustuvor maqsad sifatida e'tirof etilmoqda. An'anaviy grammatik-tarjimaviy yondashuvdan farqli ravishda, kommunikativ metodika tilni real nutqiy faoliyat jarayonida o'zlashtirishni

nazarda tutadi. Ushbu paradigmaning mantiqiy davomchisi sifatida task-based learning modeli shakllandi. Mazkur model XX asrning 80–90-yillarida ilmiy asoslandi va amaliyotga keng joriy etildi.

Task-based learning modelining nazariy asoslari N.S.Prabhu tomonidan olib borilgan Bangalore Project tajribalariga borib taqaladi. Keyinchalik Jane Willis va Rod Ellis tomonidan ushbu model tizimli ravishda ishlab chiqildi va metodik jihatdan takomillashtirildi. [3. 98]

Adabiyotlar tahlili. Task-based learning modeli ingliz tilini o‘qitish metodikasida kommunikativ yondashuvning mantiqiy davomi sifatida shakllangan bo‘lib, uning nazariy ildizlari sotsiolingvistika, psixolingvistika va konstruktivistik pedagogika tamoyillariga borib taqaladi. Mazkur model tilni grammatik qoidalar tizimi sifatida emas, balki ijtimoiy muloqot vositasi sifatida talqin qiladi. Shu sababli unda asosiy e‘tibor til shakliga emas, balki mazmunli nutqiy faoliyatga qaratiladi. [4. 280]

Kommunikativ kompetensiya tushunchasi ilk bor Dell Hymes tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, u til bilish jarayoni faqat grammatik qoidalarni o‘zlashtirish bilan cheklanmasligini, balki tilni muayyan ijtimoiy vaziyatda mos va maqsadga muvofiq qo‘llay olishni ham o‘z ichiga olishini ta’kidlagan. [4. 272] Keyinchalik Michael Canale va Merrill Swain kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlarini aniqlab, uni grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlarga ajratganlar. Vazifaga asoslangan ta’lim aynan mana shu ko‘p qirrali kompetensiyaning rivojlantirishni maqsad qiladi. [2. 35]

Mazkur modelning shakllanishida N.S.Prabhu tomonidan Hindistonda amalga oshirilgan tajribalar muhim ahamiyat kasb etadi. U o‘quvchilarga grammatik qoidalarni bevosita o‘rgatish o‘rniga muammoli vazifalarni taklif etish orqali tilni tabiiy ravishda o‘zlashtirish mumkinligini amaliy jihatdan asoslab berdi. Ushbu tajribalar tilni faoliyat jarayonida o‘rganish konsepsiyasini mustahkamladi. [6.60]

Task-based learning modeli psixolingvistik nazariyalar bilan ham uzviy bog‘liqdir. Xususan, Stephen Krashen tomonidan ilgari surilgan tushuniladigan kirish materialini nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchi o‘z bilim darajasidan biroz yuqori bo‘lgan til materialini qabul qilganida samarali o‘zlashtirish jarayoni yuz beradi. Vazifaga asoslangan darslarda o‘quvchilar autentik va mazmunli nutqiy vaziyatlarda ishtirok etadilar, bu esa tabiiy kirish materialini ta’minlaydi. [2. 42]

Shu bilan birga, Merrill Swain tomonidan ishlab chiqilgan nutqiy chiqish nazariyasi ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur qarashga ko‘ra, o‘quvchi faol nutqiy ifoda jarayonida o‘z til tizimidagi kamchiliklarni anglaydi va ularni bartaraf etishga intiladi. Vazifani bajarish jarayonida fikrni ifodalash zarurati o‘quvchini til birliklaridan faol foydalanishga undaydi, bu esa til aniqligini oshirishga xizmat qiladi. [5. 15]

Nazariy jihatdan Task-based learning konstruktivistik pedagogika tamoyillariga ham tayanadi. Konstruktivizmga ko‘ra, bilim o‘qituvchi tomonidan tayyor holda berilmaydi,

balki o'quvchining faol ishtiroki orqali shakllanadi. Vazifa bajarish jarayonida o'quvchi mustaqil qaror qabul qiladi, muammolarni hal etadi va hamkorlik asosida bilim hosil qiladi. O'qituvchi esa yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi rolini bajaradi. [3. 115]

Shuningdek, mazkur model til shakli va mazmun o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash g'oyasiga asoslanadi. Dastlab o'quvchilar mazmunli vazifani bajarishga e'tibor qaratadilar, keyinchalik esa o'qituvchi ularning nutqida yuzaga kelgan til birliklarini tahlil qiladi. Bu yondashuv til o'rganishda ravonlik va aniqlikning uyg'un rivojlanishiga xizmat qiladi.

Vazifaga asoslangan ta'lim modeli sotsiolingvistik, psixolingvistik va konstruktivistik nazariyalar integratsiyasi asosida shakllangan kompleks metodik tizimdir. Uning nazariy asoslari tilni mazmunli faoliyat jarayonida, ijtimoiy muloqot sharoitida va real kommunikativ vaziyatlarga yaqin muhitda o'zlashtirish g'oyasiga tayangan holda ishlab chiqilgan. Mazkur ilmiy poydevor ingliz tilini o'qitishda vazifaga asoslangan yondashuvning samaradorligini nazariy jihatdan asoslab beradi. [6. 72]

Tadqiqot natijalari va muhokama. Vazifaga asoslangan ta'lim modeli ingliz tilini o'qitishda dars jarayonini mazmunli va tizimli tashkil etishga imkon beruvchi uch bosqichli struktura asosida ishlab chiqilgan. Ushbu modelni Jane Willis tomonidan ilgari surilgan nazariy model misolida batafsil tushuntirish mumkin. [2. 48]

Task-Based Learning modeli



Vazifaga asoslangan ta'lim modeli ingliz tilini o'qitishda dars jarayonini tizimli va samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi metodik yondashuv bo'lib, u uch asosiy bosqichdan iborat: **tayyorgarlik bosqichi (Pre-Task)**, **vazifa jarayoni (Task Cycle)** va **til ustida ishlash bosqichi (Language Focus)**. Ushbu bosqichlar o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi tarzda ishlaydi.

1. Tayyorgarlik bosqichi (Pre-Task). Tayyorgarlik bosqichi darsning kirish qismi hisoblanadi. Bu bosqichda o'qituvchi mavzuni talabalarga tanishtiradi va ular bilan dastlabki muhokama olib boradi. Shuningdek, zarur leksik birliklar, iboralar va grammatik shakllar faollashtiriladi, bu esa o'quvchilarga vazifa bajarish jarayonida til vositalaridan samarali foydalanish imkonini beradi. O'qituvchi vazifaning maqsad va shartlarini tushuntiradi, talabalar esa mavzu bilan tanishadi va vazifani bajarishga tayyorlanadi. Tayyorgarlik bosqichi o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash, ular uchun zarur yordamni taqdim etish va vazifa jarayonini muvaffaqiyatli boshlash uchun poydevor yaratadi.

2. Vazifa jarayoni (Task Cycle). Vazifa jarayoni TBL modelining markaziy qismi hisoblanadi va uch qismga bo‘linadi: vazifani bajarish (Task), natijani rejalashtirish (Planning) va taqdimot (Report).

Vazifani bajarish (Task) bosqichida talabalar juftlik yoki kichik guruhlariga bo‘linib, berilgan topshiriqni bajaradilar. Bu jarayonda ular muammoni hal qilish, ma’lumot yig‘ish va fikrlarini hamkorlikda shakllantirish bilan shug‘ullanadilar.

Natijani rejalashtirish (Planning) bosqichida o‘quvchilar bajarilgan ishni tartibga soladilar, vazifa natijalarini umumlashtiradilar va taqdimotga tayyorlaydilar.

Taqdimot (Report) bosqichida o‘quvchilar o‘z guruhlarining vazifa natijalarini sinfga yoki boshqa guruhlariga taqdim etadilar. Bu jarayonda ular fikrini izchil ifodalaydi, nutq va tinglash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, hamkorlik va muomala ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Bu bosqich TBL modelining eng faoliyatga yo‘naltirilgan qismi bo‘lib, talabalar nutq faolligini maksimal darajada namoyon qiladi.

3. Til ustida ishlash bosqichi (Language Focus). Til ustida ishlash bosqichi vazifa bajarilgandan so‘ng amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda o‘qituvchi vazifa davomida yuzaga kelgan grammatik va leksik xatolarni tahlil qiladi, aniqlikni oshirishga yo‘naltirilgan mashqlar beradi. Shuningdek, talabalar vazifa davomida qo‘llagan til birliklarini qayta ko‘rib chiqadilar, ularni takomillashtiradilar va til qoidalarini real nutq kontekstida mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladilar.

Til ustida ishlash bosqichi o‘quvchilarning lingvistik aniqligi va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi hamda vazifa jarayonida o‘rganilgan til vositalarini yanada chuqurroq va mustahkam shaklda o‘zlashtirishga xizmat qiladi. [3. 120]

Task-Based Learning modeli ingliz tilini o‘qitishda dars jarayonini amaliy va mazmunli shaklda tashkil etish imkonini beradi. Ushbu yondashuvning asosiy tamoyili shundan iboratki, o‘quvchi tilni abstrakt qoidalar majmui sifatida emas, balki real hayotiy vazifalarni bajarish orqali o‘zlashtiradi. Amaliy qo‘llash mexanizmi uch bosqichli tuzilma – tayyorgarlik bosqichi, vazifa jarayoni va til ustida ishlash bosqichi – asosida amalga oshiriladi, lekin ularni darsning real sharoitiga moslashtirish va turli tipdagi vazifalarni ishlab chiqish muhimdir.

Tayyorgarlik bosqichida o‘qituvchi mavzuni tanishtiradi, zarur leksik birlik va grammatik strukturalarni faollashtiradi, shuningdek vazifa shartlarini talabalarga tushuntiradi. Misol uchun, “Sayohat rejasini tuzish” vazifasini ko‘rib chiqaylik. Bu bosqichda o‘qituvchi talabalarni turistik terminologiya bilan tanishtiradi, asosiy iboralar va frazal fe’llarni takrorlaydi, shuningdek, sayohat mavzusida qisqa muhokama o‘tkazadi. Shu tariqa talabalar vazifani bajarish uchun zarur bo‘lgan til resurslari bilan tanishadi va mavzuga tayyorlanadi.

Vazifa jarayoni bosqichi Task-Based Learning modelining markaziy qismi hisoblanadi. Ushbu bosqich talabalarni faol nutqqa jalb qiladi va ularning kommunikativ

ko'nikmalarini amaliyotda rivojlantiradi. Bu bosqich uch qismga bo'linadi: vazifani bajarish, natijani rejalashtirish va taqdimot. Masalan, "Ekologik muammoni hal qilish" vazifasida talabalar guruhlariga bo'linib, o'z hududidagi ekologik muammoni aniqlaydilar, sabablarini tahlil qiladilar va yechim variantlarini ishlab chiqadilar. Vazifa bajarish jarayonida talabalar ma'lumot yig'adi, fikrlarni muhokama qiladi, qaror qabul qiladi va jamoaviy ishlashni o'rganadi. Natijani rejalashtirish bosqichida ular o'z ishlarini tartibga soladi va taqdimotga tayyorlaydi. Yakuniy taqdimot bosqichida o'quvchilar vazifa natijalarini sinfga yoki boshqa guruhlariga taqdim etadilar, bu esa ularning nutq faolligi, tinglash va fikr almashish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Til ustida ishlash bosqichi vazifa bajarilgandan so'ng amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda o'qituvchi talabalar tomonidan bajarilgan vazifa jarayonida yuzaga kelgan grammatik va leksik xatolarni tahlil qiladi va aniqlikni oshirishga yo'naltirilgan mashqlar beradi. Masalan, talabalar "sayohat rejasini tuzish" vazifasida "must", "have to" kabi modallarni noto'g'ri ishlatgan bo'lsa, o'qituvchi ularni tuzatadi va to'g'ri qo'llash misollarini beradi. Shu tariqa, talabalar vazifa davomida ishlatgan til birliklarini takroriy ravishda o'rganadi, grammatik aniqlik va kommunikativ kompetensiyani mustahkamlaydi.

Amaliy qo'llash mexanizmi shuningdek, vazifalarni turli pedagogik maqsad va darajalarga moslashtirishni talab qiladi. Masalan, boshlang'ich darajadagi o'quvchilar uchun vazifalar soddalashtirilgan va qisqa bo'lishi mumkin, o'rta va ilg'or darajadagi talabalar esa murakkab muammolarni hal qilish yoki loyiha yaratish topshiriqlari bilan shug'ullanadilar. Shu bilan birga, vazifalarni guruh va juftlik shaklida tashkil etish o'quvchilarda hamkorlik, tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Task-Based Learning modelining amaliy samaradorligi nafaqat til o'rganish jarayonining mazmuniyligi bilan, balki o'quvchilarning motivatsiyasi va faol ishtiroki bilan ham bog'liq. Autentik va real hayotga yaqin vazifalar o'quvchilarning ichki motivatsiyasini oshiradi, til o'rganishga qiziqishini kuchaytiradi va ularni real kommunikativ vaziyatlarga tayyorlaydi.

Task-Based Learning modelining amaliy qo'llash mexanizmi o'quvchilarni mavzu bilan tanishtirish, ularni faol nutq jarayoniga jalb qilish va o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan kompleks va integratsiyalashgan pedagogik yondashuvdir. Shu yondashuv orqali o'quvchilar tilni faqat o'rganmay, balki uni real kommunikativ vaziyatlarda samarali qo'llashni ham o'zlashtiradilar.

Task-Based Learning modeli ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yo'naltirilgan samarali metodik yondashuv sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur modelning eng muhim afzalliklaridan biri shundaki, u o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini real nutqiy faoliyat jarayonida rivojlantirishga xizmat qiladi. O'quvchilar vazifalarni bajarish jarayonida o'z fikrini ifodalash, savol-javob qilish, muhokama yuritish va qaror qabul

qilish orqali tilni tabiiy sharoitda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Natijada til birliklari sun'iy mashqlar orqali emas, balki mazmunli muloqot vositasida o'zlashtiriladi.

Ushbu model o'quvchi markazli yondashuvni ta'minlaydi. Dars jarayonida o'quvchi faol ishtirokchi sifatida namoyon bo'ladi, o'qituvchi esa ko'proq yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi rolini bajaradi. Bu esa o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va o'z qarorini asoslash ko'nikmalarini shakllantiradi. Guruh yoki juftlikda bajariladigan vazifalar hamkorlik muhitini yaratadi, ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Vazifalarning real hayotiy vaziyatlarga yaqinligi ham mazkur modelning muhim ustunliklaridan biridir. Sayohat rejasini tuzish, muayyan muammoni hal etish, loyiha ishlab chiqish yoki intervyu o'tkazish kabi topshiriqlar o'quvchilarning tilni amaliy qo'llash malakasini oshiradi. Bu jarayon o'quvchilarda ichki motivatsiyani kuchaytiradi, chunki ular tilni nazariy bilim sifatida emas, balki real ehtiyojni qondirish vositasi sifatida qabul qiladilar.

Shu bilan birga, Task-Based Learning modelini qo'llash jarayonida ayrim muammolar ham yuzaga kelishi mumkin. Agar o'quvchilarning til darajasi yetarli bo'lmasa, ular murakkab vazifalarni bajarishda qiyinchilikka duch keladilar. Bunday holatda vazifa mazmuni bilan til imkoniyatlari o'rtasida nomutanosiblik yuzaga kelishi mumkin. Bu esa ayrim o'quvchilarning ishtirokini susaytirishi ehtimoldan xoli emas. [3. 120]

Modelni samarali amalga oshirish o'qituvchidan yuqori darajadagi metodik tayyorgarlikni talab qiladi. Vazifalarni to'g'ri tanlash, ularni dars maqsadiga moslashtirish, vaqtni samarali taqsimlash va natijalarni baholash jarayoni puxta rejalashtirilishi zarur. Aks holda dars jarayoni tartibsiz tus olishi yoki kutilgan natijaga erishmasligi mumkin.

Baholash jarayoni ham nisbatan murakkab hisoblanadi, chunki bu yondashuvda faqat grammatik to'g'rilik emas, balki nutq ravonligi, mazmun aniqligi, muloqot samaradorligi va hamkorlik darajasi ham inobatga olinadi. Shu sababli baholash mezonlarini oldindan aniqlash va o'quvchilarga tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Vazifaga asoslangan ta'lim modeli ingliz tilini o'qitishda zamonaviy va samarali metodik yondashuv sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu model tilni qoidalar tizimi sifatida emas, balki mazmunli muloqot va real hayotiy faoliyat vositasi sifatida o'zlashtirish tamoyiliga asoslanadi. Dars jarayonida o'quvchilarning faol ishtiroki, hamkorlikda ishlashi va muammoni hal qilishga yo'naltirilgan vazifalarni bajarishi til o'rganishni tabiiy va motivatsion jarayonga aylantiradi.

Vazifaga asoslangan ta'lim jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi izchil rivojlanadi. Ular o'z fikrini ifodalash, dalillash, savol-javob qilish va ijtimoiy muloqotga kirishish orqali til vositalaridan amaliy foydalanishni o'rganadilar. Bunda ravonlik va aniqlik o'zaro uyg'unlikda shakllanadi, chunki vazifa bajarish jarayoni

mazmun ustuvorligini ta'minlasa, til ustida ishlash bosqichi grammatik va leksik aniqlikni mustahkamlaydi.

Mazkur modelning samaradorligi o'quvchilarning yosh xususiyatlari, til darajasi va dars maqsadiga mos ravishda vazifalarni tanlash hamda puxta rejalashtirishga bog'liqdir. O'qituvchining metodik mahorati, vazifalarni to'g'ri tashkil etishi va baholash mezonlarini aniq belgilashi ta'lim natijadorligini oshiradi.

Shunday qilib, vazifaga asoslangan ta'lim modeli ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yo'naltirilgan, interaktiv va motivatsion muhitni yaratishga xizmat qiladi. U o'quvchilarni real nutqiy vaziyatlarga tayyorlaydi, mustaqil fikrlash va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda tilni samarali va mazmunli o'zlashtirish imkonini beradi. Zamonaviy ta'lim jarayonida ushbu modelni ilmiy asosda qo'llash va metodik jihatdan takomillashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ellis R. Task-based Language Learning and Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2003. – 387 p.
2. Willis J. A Framework for Task-Based Learning. – Harlow: Longman, 1996. – 192 p.
3. Prabhu N. S. Second Language Pedagogy. – Oxford: Oxford University Press, 1987. – 153 p.
4. Hymes D. On Communicative Competence // Sociolinguistics: Selected Readings / Ed. by J. B. Pride, J. Holmes. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.
5. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1, № 1. – P. 1–47.
6. Krashen S. D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982. – 202 p.
7. Nunan D. Task-Based Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – 222 p.

AGIYAZ ATINDAGI
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934